

**“O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid  
Davlat dasturida belgilangan chora-tadbirlar ijrosi to‘g‘risida  
TAHLILIIY MA‘LUMOT**

*2024 yil 25 sentyabr holatiga*

T/r	Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar	Amalga oshirish mexanizmlari	Muddati	Amalga oshirish xarajatlari (moliyalashtirish manbalari)	Mas‘ul ijrochilar	Amalga oshirilgan ishlar, tayyorlangan hujjat loyihalari (kimga, qachon kiritilganligi, xat raqami va sanasi)
<b>II. BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI FAROVONLIGINI TA‘MINLASH.</b>						
<b>47-maqsad: Mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish va ilg‘or texnologiyalarga asoslangan sanoatni rivojlantirish.</b>						
<b>Ijro uchun asosiy mas‘ul — Iqtisodiyot va moliya vazirligi (B. Xodjaev)</b>						
<b>1</b>	<b>12. “Yoshlik” konini o‘zlashtirish” investitsiya loyihasi doirasida 60 mln tonna rudani qayta ishlash quvvatiga ega 3-mis boyitish fabrikasini to‘liq ishga tushirish.</b>	<b>1.</b> 3-mis boyitish fabrikasi uchun asosiy texnologik uskunalarni qurilish maydonchasiga yetkazish, o‘rnatish va montaj qilish ishlarini yakuniga yetkazish.	2024 yil sentyabr	Loyiha-smeta hujjatlari asosida <i>(xorijiy bank kreditlari va o‘z mablag‘lari)</i>	“Olmaliq KMK” AJ <b>A. Xursanov,</b>  Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi <b>B. Islamov</b>	<b><u>Bajarilmoqda.</u></b> Yangi 3-son mis boyitish fabrikasi (3-MBF) qurilish-montaj ishlari “Enter Engineering” Pte. Ltd. va “Uralmashzavod” OAJ bilan 2021 yil 21 sentyabrda tuzilgan ERS-shartnomasi doirasida amalga oshirilmoqda. Kon ishlarini bajarish maqsadida asosiy tog‘-kon texnikasi va uskunalarni yetkazib berish uchun mahalliy va chet-el ishlab chiqaruvchilari bilan umumiy soni 466 million dollarlik jami 602 dona kon uskunalari hamda 50 million dollarlik 254 dona temir yo‘l texnikasi yetkazib berildi. Obyektda tog‘-kon ishlari olib borilmoqda va bugungi kunga qadar 198,7 mln kub metrdan ortiq ishlar bajarildi. 3-MBFda qurilish-montaj ishlari 59% va asosiy texnologik uskunalarni yetkazib berish ishlari 96% bajarildi. Shuningdek, ruda-siklik oqim texnologiyasi maydonida qurilish-montaj ishlari 68%, tashqi suv ta‘minoti obyektlari 78%, chiqit saqlash xo‘jaligi 35,0% bajarildi. <b>Ma‘lumot uchun:</b> <i>Vazirlar Mahkamasi Rayosati Majlisining 2024 yil 18 sentyabrdagi 98-son bayoni 6-ilovasini 30-bandiga muvofiq topshiriq ijro muddatini 2025 yil 25 iyungacha qadar uzaytirish taklifiga rozilik berilgan.</i>
		<b>2.</b> Rudani qayta ishlash yillik quvvati <b>60 mln tonna</b> bo‘lgan 3-mis boyitish fabrikasini foydalanishga topshirish.	2024 yil oktyabr			<b><u>Bajarilmoqda.</u></b> Yangi 3-son Mis boyitish fabrikasi belgilangan muddatda foydalanishga topshiriladi. <b>Ma‘lumot uchun:</b> <i>Vazirlar Mahkamasi Rayosati Majlisining 2024 yil 18 sentyabrdagi 98-son bayoni 6-ilovasini 34-bandiga muvofiq topshiriq ijro muddatini 2025 yil 25 iyulga qadar uzaytirish taklifiga rozilik berilgan.</i>